

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2025-yil 31-oktabr № 13 (1559)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

ISHONCHLI HIMOYACHI

Bugun kasaba uyushmalari tomonidan amalga oshirilayotgan, omma e'tiboriga tushayotgan ijobiy ishlardan juda mamnunman.

2

MEHNAT MUNOSABATLARI

Har qanday ish beruvchi o'z xodimining mehnat faoliyati davomida hayoti va sog'lig'ini himoya qilish uchun javobgardir.

3

ESHIKLAR KALITI

Kitobdan yuz o'girmang. Yomonlikka emas, yaxshilikka shoshiling. Ilm, odob, halollik va mehnat – sizga barcha eshiklarni ochadi.

4

11-NOYABR – O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI KUNI

“Hech shubhasiz, biz erishayotgan natijalarda 8 millionga yaqin a'zoga ega, eng xalqchil va katta nodavlat tashkiloti bo'lgan kasaba uyushmalarining munosib hissasi bor.

Shavkat MIRZIYOYEV.

INSON MANFAATI – ENG OLIV QADRIYAT

Bu yil yurtimizda mehnatkashlar manfaatlarini himoya qilish, ularning huquq va kafolatlarini ta'minlashda muhim o'rin tutadigan tashkilot – kasaba uyushmalari faoliyatiga 120 yil to'lmoqda. Bu sana yurtimizda ijtimoiy hamjihatlik, mehr-oqibat va inson qadrini ulug'lash an'analari qay darajada mustahkam ildiz otganini ko'rsatadi.

Kombinatda ishlaydigan har bir ishchi-xodim ijtimoiy hayoti kasaba uyushmalari bilan chambarchas bog'liq ekanligini yaxshi his qiladi. Chunki uyushma tomonidan tashkil etiladigan turli tadbirlar, beriladigan imtiyozlar barchani o'ziga qamrab oladi.

Kombinat tarkibidagi barcha sharoitlarga ega 150 o'rinli pansionat, “Baxt uyi” marosimlar saroyi, ming xil mayda mollar va oziq-ovqat bilan to'la 4 ta “Kasaba do'koni” ishchilar uchun qulaylik tug'diradi. Ishga kirganiga 20, 30, 40 yil bo'lgan xodimlarni 2, 3 va 4 oylik ish haqi miqdorida mukofotlash kabi qo'shimcha rag'batlar joriy etilgan. Shuningdek, metallurqlar uchun sanatoriy-profilaktoriylarga imtiyozli yo'llanmalar beriladi. Bolalar oromgohlariga yo'llanmalar haqining 80 foizi kombinat hisobidan to'lanadi.

(Davomi 2-sahifada).

PO'LAT ERITISH USTALARI – JAMOA FAXRI



Elektrda po'lat eritish bo'linmasida o'z kasbini chin dildan sevgan, fidoyi va ahil jamoa shakllangan. Bu yerda mehnat qilayotgan ishchi va mutaxassislar sanoatimiz rivojiga munosib hissa qo'shishni o'zlarining burchi deb biladilar. Ular har kuni mas'uliyatli va murakkab jarayonlarda mehnat qilib, yurtimiz iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim o'rin tutishmoqda.

Po'lat eritish uchun barcha xomashyolar yetarli bo'lganda bo'linmada mahsulot ishlab chiqarishda doimo yuqori ko'rsatkichlar qo'lga kiritilgan.

O'tgan oyda bo'linmada 53 752 tonna po'lat eritilib, belgilangan reja 100,6 foizga bajarildi. Bu natija jamoaning fidokorona mehnati, o'z ishiga bo'lgan sadoqati va ishga mas'uliyat bilan yondashuvining yorqin namunasidir.

Ishlab chiqarishdagi har bir

yutuq ortida inson mehnati, tirishqoqligi va mahorati mujassam. Bo'linmaning birinchi brigadasi katta ustasi Erkin Egamqulov, uzluksiz po'lat quyish qurilmasi po'lat quyish oralig'i ustasi Muxtor Ergashev, pech oralig'i smena ustasi Sobir Mamatov, po'lat erituvchi Husan Xojayev hamda po'latga pechdan tashqarida ishlov berish qurilmasi po'lat erituvchisi Ibrohim Rahimov kabilar jamoaning faxridir.

Ular o'zining malakasi, mas'uliyatliligi va ishga sidqidildan munosabati bilan boshqalarga ibrat bo'lib kelmoqdalar. Bu ustalar faqatgina ish jarayonida emas, balki yosh kadrlar tarbiyasida ham faol ishtirok etishadi. Ular orqali ish joyida tajriba, mahorat va mehnat madaniyati avloddan-avlodga o'tib bormoqda.

Diyor ZULFIQOROV.



YUQORI TAYYORGARLIK – MUVAFFAQIYAT ASOSI

Avtomobil transporti xodimlari zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, korxonalar faoliyati samaradorligi va aholi turmush darajasini oshirishga beqiyos hissa qo'shadilar. Ular yuk va yo'lovchilarni o'z vaqtida, xavfsiz va qulay tarzda manzilga yetkazib, uzluksiz ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlaydilar.

Haydovchi kasbi har doim yuqori mas'uliyat va malakani talab qiladigan sohadir. Aynan ular xomashyo, mahsulot, uskunalar va odamlarni ularni kutgan joylarga yetkazib beradilar, har kuni zich ish jadvali va murakkab yo'l sharoitida mehnat qiladilar. Kombinatning xavfsizligi va samarali faoliyati esa bevosita ularning tajribasi va diqqat-e'tiboriga bog'liq.

“O'zmetkombinat” AJning barqaror ishlashida Avtotransport xizmati muhim rol o'ynaydi.

Ushbu xizmat ishtirokisiz korxonaning barqaror faoliyatini tasavvur qilish mumkin emas. Uning tarkibida avtotransportlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bilan shug'ullanadigan ta'mirlash-mexanika ustaxonasi, yo'l qurilishi va texnologik maxsus texnikani ekspluatatsiya qiluvchi uchastka va ishchi-xodimlar, materiallar va yuklarni tashishni tashkil etadigan ekspluatatsiya uchastkasi faoliyat ko'rsatadi.

Bugungi kunda xizmat ixtiyorida 136 ta texnika

mavjud. Yillik texnik ko'rik natijalariga ko'ra, texnik tayyorlik koeffitsienti 95 foizni tashkil qiladi. Bu yuqori sifatli xizmat, puxta nazorat va malakali jamoa mehnatining natijasidir.

Jamoaning ishga mas'uliyat bilan yondashuvi, intizom va ahilligi ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlab, tashishlar xavfsizligini kafolatlaydi va ishlab chiqarishning barqarorligini saqlashga yordam beradi.

Nigora AXMEDOVA.

MEHNATKASHLARNING ISHONCHLI HIMOYACHISI

Bugun kasaba uyushmalari tomonidan amalga oshirilayotgan, omma e'tiboriga tushayotgan ijobiy ishlardan juda mamnunman. Boisi, ushbu tizim Prezidentimiz belgilab bergan vazifalarni to'liq bajarib, insonlar haq-huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy hayotni yaxshilash va ish unumdorligini oshirish yo'lida, ishchi-xodimlarga yaqindan madadkor bo'lishda salmoqli natijalarga erishmoqda.

Hozirgi kunda hatto eng chekka hududlarda ham zamonaviy, barcha qulayliklarga ega sihatgohlar va dam olish uylarining barpo etilayotgani – xodimlarning halol, barakali mehnati munosib rag'batlantirayotganining yorqin dalilidir. Ilgari bunday imkoniyatlar asosan markazlarda mavjud bo'lgan bo'lsa, endilikda chekka hududlarda yashovchi oddiy ishchilar ham ulardan bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tashabbusi bilan Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi hamda Kasaba uyushmalari muzeyining ochilishi, shuningdek, zamonaviy va ko'rkam Kasaba uyushmalari saroyining barpo etilishi jamiyatimizdagi muhim va quvonchli voqealardandir. Ayniqsa, o'z tarixida ulkan ma'lumot va topilmalarni jamlagan, bugungi kunda ham yangilanib, boyib borayotgan

muzey faoliyati bilan tanishgan har bir kishi kasaba uyushmalari tizimida yillar davomida fidokorona mehnat qilgan insonlarning xizmatlariga guvoh bo'ladi.

Eng muhimi, kasaba uyushmalari ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan va boquvchisini yo'qotgan oilalarga, ayniqsa, ayollarga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi so'nggi yillarda "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar muammolarini o'rganish va ularni hal etish bo'yicha izchil ish olib bormoqda. Bu jarayonda ayrim ayollar farzandini yolg'iz tarbiyalayotgani, ba'zilar esa uy-joy yoki ishsizlik muammosiga duch kelayotgani ham inobatga olinmoqda.



Har bir hududda faoliyat yuritayotgan tarmoq kasaba uyushmalari ishchi guruhlarining muntazam sa'y-harakatlari natijasida ko'plab shunday muammolarga amalda yechim topilmoqda.

Ijtimoiy himoyaga muhtojlarga ko'rsatilayotgan yordamlar, uy-joy bilan ta'minlash, sog'lomlashtirish choralarining ko'rilayotgani, homiylik va xayrli ishlar amalga oshirilayotganini ko'rib, chin dildan quvonaman. Bu ezgu faoliyat kasaba uyushmalarining haqiqiy insonparvar va jamiyat manfaatlariga xizmat qilayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Olim TO'YCHIYEV,
"O'zmetkombinat" Ajnig
mehnat faxriysi,
O'zbekiston Qahramoni.

Kombinat tarkibiy va hududiy bo'linmalari, tizim tashkilotlarining korrupsiyaga moyilligi yuqori bo'lgan lavozimda ishlovchi xodimlari uchun Xodimlar malakasini rivojlantirish markazida kombinat Komplaens xizmati bilan hamkorlikda keng qamrovli maxsus o'quv-seminarlari tashkil etildi. Seminar ma'ruza, muhokama, interaktiv suhbat, trening va muzokaralar shaklida o'tkazildi.

MAXSUS O'QUV SEMINARLARI O'TKAZILDI

Komplaens xizmati xodimi G.Nurmatov "O'zmetkombinat" Ajning "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish Nizomi" talablari bajarilishi to'g'risida maxsus o'quv kursini tashkil etish to'g'risidagi buyruqlari, shuningdek, o'quv kursining samaradorligini belgilangan yo'nalishlar va indikatorlar asosida reyting baholash haqida maxsus o'quv kursi qatnashchilariga ma'lumot berdi.

Shu tariqa, maxsus o'quv kursi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha eng dolzarb masalalar, xususan, amaliyot bilim va ko'nikmalarni oshirish yo'llari, samaradorlikni baholash usullari muhokama qilindi.

Maxsus o'quv kursida tinglovchilarga Manfaatlar to'qnashuvining ijtimoiy xavfliligi, uning ko'rinishlari, fuqarolar, davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda yoki jiddiy miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lishi to'g'risida to'liq ma'lumotlar berildi.

Alijon SOLIYEV.

SO'RAGAN EDINGIZ

TA'TILDA BOSHQA TASHKILOTDA ISHLASH MUMKINMI?

Mehnat ta'tilida qo'shimcha daromad topish uchun boshqa tashkilotda vaqtinchalik ishlash qonunlarimizga zid emasmi?

Sh. Azamatov.

Mehnat ta'tili – bu faqat dam olish emas, balki xodimning shaxsiy ixtiyori bilan foydalanadigan vaqtidir. Mehnat kodeksining 201-moddasida ta'til ish vaqtini tashkil etmasligi va bu davrda xodim o'z xohishiga ko'ra harakat qilishi mumkinligi belgilangan.

Shu ma'noda, agar xodim mehnat ta'tilida bo'lsa, u boshqa tashkilotda ishlashi mumkin. Bu qonunga zid emas, chunki ta'til davrida asosiy ish joyi bilan mehnat munosabati to'xtamaydi, faqat vaqtinchalik ishdan ozod etiladi.

Ba'zi odamlar uchun ta'til davrida ham faol bo'lish, jismoniy yoki boshqa turdagi mehnat bilan shug'ullanish sog'lomlashishga yordam beradi. Masalan, ofisda ishlovchi shaxs ta'til paytida qishloqda yoki boshqa joyda jismoniy mehnat qilishi uning sog'lig'i uchun foydali bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat ta'tili davomida boshqa tashkilotda ishlash qonun bilan taqiqlanmagan. Asosiy shart bu ish xodimning asosiy vazifalariga xalal bermasligi va sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmasligidir.

Inomjon ESHONQULOV.

INSON MANFAATI – ENG OLIY QADRIYAT

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Ayollarga har yili haq to'lanadigan va davomiyligi 3 kundan iborat bo'lgan qo'shimcha ta'til beriladi. Birinchi marta turmush qurayotgan yoki farzand tug'ilishi munosabati bilan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarga ham bir martalik moddiy yordam ko'rsatiladi. Yangi yil bayramida 13 yoshga to'lmagan farzandlarga sovg'alar ajratiladi. Kam ta'minlanganlarga bayram kunlarida kombinat kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan oziq-ovqat to'plamlari ko'rinishida yordam ko'rsatiladi.

Ishchi-xodimlar teatr, konsertlarga borib madaniy dam olishlari, mamlakatimiz bo'ylab sayyohatlar tashkil etilishi, mehnat jamoalarida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar – bularning barchasi uyushma faoliyatining uzviy qismiga aylangan. Tarkibiy bo'linmalar, metallurglar orasida turli sport musobaqalari o'tkazilishi ham yaxshi an'anaga aylangan.

Bu kabi ishchi-xodimlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, mehr va e'tibor ularning faoliyatiga motivatsiya bag'ishlaydi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi va mehnatni qadrlash, inson qadrini ulug'lash an'anasini mustahkamlaydi.

Mavridi kelganda, O'zbekiston metallurgiya va mashinasozlik sanoati tarmoqlari xodimlari kasaba uyushmasi bilan hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilganini alohida ta'kidlash joiz. Zero, tarmoq

tomonidan o'tkaziladigan turli tadbir, spartakiada va intellektni sinash musobaqalarida korxonamiz ishchi-xizmatchilari ham faol qatnashadilar. Faxriy o'rinlarni egallaganlari diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlanadilar.

120 yil – bu bir tashkilot yoshi emas, balki butun mamlakatimizda mehnatkash insonning qadri va huquqini himoya qilish an'anasining tarixi demakdir. Kasaba uyushmalari bu yillar davomida nafaqat ishchi-xodimlarning moddiy manfaatlarini ko'zlab ish tutdi, balki ularning ma'naviy, madaniy va jismoniy yetukligini ta'minlashda ham muhim o'rin tutdi.

Mehnat jamoalarida sog'lom muhitni shakllantirish, ishchi-xodimlarning salomatligini mustahkamlash, xotin-qizlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlash – bularning barchasi uyushmaning asosiy vazifasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Bugun kasaba uyushmalari nafaqat ish beruvchi va ishchi o'rtasidagi ko'pri, balki jamiyatda barqarorlik va birdamlikni mustahkamlovchi kuch sifatida ham o'z nufuzini saqlab turibdi.

Kasaba uyushmasi a'zolarini, shu sohada ishlayotganlarni, metallurglarni O'zbekiston kasaba uyushmalarining 120 yillik yubileyi va yaqinlashib kelayotgan kasaba uyushmalari kuni bilan tabriklaymiz.

Ismat DIYOROV.

KORRUPSIYA – RIVOJLANISHGA TO'SIQ

HALOL MEHNAT – FAROVON KELAJAK KAFOLATI

Hozirgi zamonda korrupsiya ko'plab mamlakatlarning taraqqiyotiga katta to'siq bo'lib turibdi. U davlat idoralari, biznes, ijtimoiy sohalar va har bir fuqaroning hayotiga, ish joyimizga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan og'ir ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Korrupsiya mamlakat iqtisodiyotining samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Investorlar korrupsiya ko'lamini yuqori bo'lgan mamlakatlarga ishonch bilan pul kiritmaydi, natijada yangi ish o'rinlari yaratilishining oldi to'siladi. Bu illat oqibatida imkoniyatlar va resurslar adolatsiz taqsimlanadi.

Metallurgiya kabi muhim va strategik sohada halollik, adolat va shaffoflik – mehnat samaradorligini oshirish, jamoa ishonchini mustahkamlash va korxona rivoji uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Korrupsiya, aksincha, mehnat muhitini buzadi, ishonchni so'ndirib, samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Korrupsiya faqatgina pora berish yoki olish

bilan chegaralanmaydi. U ish joyida "tanish-bilishchilik", tenderlarda adolatsizlik, ishchilar o'rtasidagi tengsiz munosabatlar ko'rinishi kabilarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Bunday holatlar jamoada ishonchsizlik, adolatsizlik hissinin paydo qiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish – bu jamiyat taraqqiyotining, davlatning mustahkamligi va xalq farovonligining kafolati hisoblanadi. Faqat shaffof va adolatli boshqaruv orqali davlat resurslari to'g'ri yo'naltirilishi, ijtimoiy adolat ta'minlanishi mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda eng asosiy omillardan biri – bu illatga nisbatan jamiyatda murosasizlik hissinin shakllantirishidir. U insonlarni halollik, adolat va shaffoflik tamoyillarini himoya qilishga undaydi, korrupsiyaga qarshi birdamlik va faollikni oshiradi.

Yoshlarning ma'rifiy darajasini oshirish, adolat va poklikka intilish esa korrupsiyaning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat davlat, balki har bir mehnat jamoasining, har bir shaxsning vazifasi. Faqat birgalikda, faol, ochiq va adolatli muhitni yarata olsak, korrupsiya illatiga

Korrupsiya mamlakat ravnaqini barbod qiladi!



qarshi samarali kurasha olamiz.

Metallurglar har doim adolat, poklik va vijdon bilan ish yuritish orqali jamiyatimizda ibrat bo'lib kelishgan. Bugun ham ana shu an'anani davom ettirib, hamkasblarimizni halollik va mas'uliyat sari chorlaymiz!

G'anisher NURMATOV,
"O'zmetkombinat" AJning
Kuzatuv kengashi huzuridagi
Komplaens xizmati menejeri.

MEHNAT MUNOSABATLARI

Har qanday ish beruvchi mehnat xavfsizligi yuzasidan o'z xodimining mehnat faoliyati davomida hayoti va sog'lig'ini himoya qilish uchun javobgardir. Ushbu majburiyat mamlakatimizda "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonun bilan belgilab qo'yilgan.

ISHCHI-XODIM XAVFSIZLIGI – QONUN HIMOYASIDA

Ushbu majburiy sug'urta turi bo'yicha ish beruvchining fuqarolik javobgarligi yuzaga kelganda, ya'ni sug'urta shartnomasiga ko'ra ish beruvchining javobgarligi xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan xodimning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini qoplanishini ko'zda tutadi, ya'ni yetkazilgan zararga sug'urta to'lovi beriladi.

Qonun talablarining ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 24-iyundagi 177-son qarori bilan tasdiqlangan "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish" qoidalarining 3-bandida ish beruvchi u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan yoki ish beruvchilar – jismoniy shaxslar uchun mehnat shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab 15 ish kunidan kechikmay mehnatda shikastlanish, kasb kasalligi yoki uning mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha shikastlanishi munosabati bilan xodimning hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha o'z fuqarolik javobgarligini sug'urta qilishi shartligi belgilab qo'yilgan.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi – sug'urtalovchi uning bo'yicha sug'urta hodisasi vujudga kelganda kelishilgan to'lov (sug'urta mukofoti) yuzasidan ish beruvchiga va jabrlanganga yoxud naf oluvchiga mehnatda mayib bo'lganligi, kasb kasalligiga chalinishi yoki uning mehnat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanganligi munosabati bilan xodimning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini sug'urta summasi doirasida qoplash majburiyatini oladigan sug'urta shartnomasi



hisoblanadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi va sug'urta qilish polisi majburiy sug'urta qilishning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar hisoblanadi. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi ish beruvchi hamda sug'urta qiluvchi o'rtasida bir yil muddatga tuziladi. Agar ish beruvchi o'z faoliyatini bir yildan kam muddatda amalga oshirsa, u holda ish beruvchi faoliyatni amalga oshirish muddatiga tuziladi. Shartnoma quyidagi hollarda amal qilishi muddatidan oldin to'xtatilishi mumkin:

ish beruvchi – yuridik shaxs tugatilganda yoki qayta tashkil etilganda;

ish beruvchi – jismoniy shaxs vafot etganda; majburiy sug'urta qilish shartnomasi sud qaroriga ko'ra haqiqiy emas deb e'tirof etilganda.

Yuqoridagi qonunning 25-moddasida Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'lishi belgilangan.

O'ktam O'SAROV,
mehnatni muhofaza qilish bo'yicha
davlat texnik inspektori.

“LEYSHMANIOZ”
QANDAY KASALLIK?

SHIFOKOR TAVSIYASI

Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining bergan ma'lumotiga ko'ra har yili leyshmanioz kasalligi bilan yer yuzida yashovchi bir milliondan ikki milliongacha aholi zararlanadi. O'zbekistonda visseral va teri-leyshmaniozi ko'proq uchraydi. Visseral leyshmanioz o'z vaqtida davo ko'rilmasa, yuz foiz o'lim holati bilan yakunlanishi mumkin. Teri-leyshmaniozda o'lim holati ro'y bermaydi.

O'zbekistonning bir qancha viloyatlarida leyshmaniozning tabiiy o'choqlari mavjud bo'lib har yili teri leyshmanioz kasalligi ro'yxatga olinishi kuzatilmoqda.

Kasallik manbai: kasallangan itlar, chiyabo'ri, tulki va yumronqoziqlar va kemiruvchilardir. Qon so'ruvchi hashoratlar turkumiga kiruvchi iskabtoparlar kasallangan kemiruvchilar qonini so'rib, odamlarni chaqqan vaqtda, leyshmaniyalar sog'lom odamga yuqadi.

Kasallik belgilari: tana haroratining 39-40 darajagacha ko'tarilishi, ishtahaning keskin pasayishi, holsizlik, teri rangi oqarishi, qorinning taranglashib, shishib ketishi, jigar va taloq kattalashishi hisobiga aniq namoyon bo'ladi.

Agar kasallik bilan zararlansangiz zudlik bilan shifokorga murojaat qiling.

Qadrli metallurglar!

Kasallikni davolashdan ko'ra uning oldini olgan ma'qul. Buning uchun uyda boqilayotgan itlarni o'z vaqtida veterinar nazoratiga ro'yxatga qo'yish, itlarda kasallik alomatlariga gumon qilinganda darhol shahar veterinariya xizmatiga murojaat qilish, kerakli maslahatlarga amal qilish kerak. Bolalarni itlar bilan o'ynashiga ruxsat bermaslik, xonadonlarda kemiruvchilar ko'payishiga yo'l qo'ymaslik, qoramol go'nglarini yig'ymaslik va ko'p qavatli uylar atrofida chiqindilarni faqat maxsus chiqindixonalarga to'kish lozim.

Bugungi kunda ko'p qavatli uylarning yerto'lasida keraksiz suv ko'lmaklari paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Eslatib o'tamiz kasallikka qarshi vaksina mavjud emas.

Umida USMONOVA,
Bekobod shahar Sanepidbo'limi
vrach yordamchisi.

Abdumajid maktabda, ham universitetda a'lo baholarga o'qib, o'z sinfdoshlari orasida ilmi va tarbiyasi bilan alohida ajralib turardi. Universitetni tamomlaganidan so'ng, u O'zbekiston metallurgiya kombinatida oddiy ishchilikdan mehnat faoliyatini boshladi.

Abdumajid ishni puxta o'rgana boshladi. Ilmiy bilimni amaliyot bilan bog'ladi.

Bir kuni korxonada kichik bir texnik nosozlik yuzaga chiqdi. Hamma sarosimaga tushdi. Abdumajid esa vaziyatni tez tahlil qilib, nosozlikni bartaraf etdi.

Bosh muhandis:

– Rahmat, Abdumajid! Agar sen bo'lmaganda, katta to'xtalish bo'lardi, – deya unga minnatdorchilik bildirdi.

Yosh mutaxassis kombinatni modernizatsiya qilish, texnik va

texnologik qayta jihozlashda o'zining innovatsion takliflari bilan faol qatnashib, ish jarayonlarining samaradorligini oshirishga munosib hissa qo'shdi. U nafaqat yaxshi muhandis, balki



BARCHA ESHIKLAR KALITI

ibratli inson sifatida ham tanildi.

Jamoda u haqida shunday deyishardi:

– Ilmli, lekin manman emas. Yordam so'rasang, yo'q demaydi. Qilayotgan ishini sevib bajaradi.

Bir yil o'tib, uni bo'linma rahbarining o'rinbosari etib tayinlashdi. So'ng bo'linma boshlig'i bo'ldi. Endilikda u yosh bo'lsada vazirlikda mas'uliyatli lavozimda ishlamoqda. Ammo Abdumajid hamon kombinatda oddiy ishchiligidagi kabi oddiy, kamtar va mehnatkashligicha qoldi.

Yoshlarga murojaat:

Siz ham Abdumajid kabi ilmga chanqoq bo'ling. Kitobdan yuz o'girmang. Yomonlikka emas, yaxshilikka shoshiling. Ilm, odob, halollik va mehnat – sizga barcha eshiklarni ochadi.

Diyor ZULFIQOROV.

BO'LGAN VOQEA

Bir qassob haqida yozilgan feletonni o'qigan yuzlab qassoblar men haqimda yozibdi deb yozuvchidan xafa bo'lgan ekan. Ana shunga o'xshash voqea bizning gazetada berilgan hajviyadan so'ng ham ro'y bergan edi. Bu holatga shoir va yozuvchi Olloyor Begaliyevning "Tulkilar orasida" hajviyasi sabab bo'lgan edi.

"TULKILAR ORASIDA"

Ba'zi bir asarlarning o'zi kichkina bo'lsa-da, tashvishi o'zidan katta bo'ladi. Xususan, 1990-yilda yozgan "Tulkilar orasida" hajviyam o'zi kichkina bo'lsa-da, ancha noqulayliklar tug'dirgan.

Bu hajviyamni Toshkentda ishlab yurgan vaqtim yozgan edim. U "Mushtum" jurnalida e'lon qilindi. "Tabassum" radiojurnalida postonovka bo'ldi. Markaziy gazetalarda ham nashr etilgan edi.

Bu hajviyani yozganimdan oradan to'rt yilcha o'tib, "O'zmetkombinat"da tarjimonlik qilayotgan paytim, "Metallurg minbari" gazetasidagi yigitlar ixchamroq bir narsa bering deyishganida mana shu hajviyamni bervordim. Kamina ta'tilga chiqib ketgan paytim, korxona partiya qo'mitasi kotibi gazetadagi ushbu hajviyaga ko'zi tushib qolib, qo'rqib ketibdi. Uni ko'tarib, avval gazeta tahririyatiga kirib, bu nima qiliq, deya rosa shovqin solibdi. Gazetadagilar uning gaplariga parvo qilishmagach, hajviyani men bilan ishlaydigan hamxonalarimga ko'rsatib, sizlarni, direktoriniyam qo'shib tulki deb yozibdi-ku, deya vasvasa qo'zg'abdi. Hamxonalarning jahli chiqib, uni korxona direktoriga ko'rsatish kerak deya, rus tiliga tarjima qilishibdi. Chunki, korxona direktori rus kishi edi. Gazetani tarjimasi bilan direktorning kotibasining qo'liga tutqazishibdi.

Kotiba juvon ancha oqila ayol bo'lib, ular keltirgan narsaning mohiyatini tushungandan so'ng, partkomni



uyaltirib: "Direktorning bundan boshqa ishi yo'qmi?! Borib, bu narsani yozgan odam bilan o'zaro hal qilinglar!" – deya chiqarib yuboribdi.

Men ta'tildan qaytib kelganimda bu haqda ancha paytgacha bilmaganman. Faqat, bir ish bilan qabulxonaga kirganimda direktor kotibasining yodiga biror oylar oldin bo'lib o'tgan mashmasha tushib qolib, ishing tinchib ketdimi deb, voqeani bayon qilib berdi. "Men bu narsani bu yerga ishga kelmasimdan besh yillar oldin yozganman, hammasi to'qima, yozuvchining xayoli" – dedim kulgim kelib.

Xonamga qaytib chiqib, partiya kotibining bitta hajviyamning orqasidan qilib yurgani ishlari haqida kula-kula hamxonalarimga aytib berganimda, ular qovoqlarini solib olishdi. Bu hajviya ularning ham nafsoniyatiga tegib, kaminadan ancha xafa bo'lishgan ekan. Bu narsa mening battar kulgumni qo'zg'ab, ularning ham ustidan rosa miriqib kulganman.

Olloyor BEGALIYEV.

HIKMATLAR XAZINASI

*Hech bir gap qolmadi, ma'lum bo'lmagan,
Juda oz sir qoldi, mavhum bo'lmagan,
Bilimim haqida chuqur o'ylasam,
Bildimki, hech narsa ma'lum bo'lmagan.*

Abu Ali ibn Sino.

*Siz ertangi taqdirni, hattoki, avliyo bo'lsangiz ham oldindan
bila olmaysiz. Shunday ekan, bugungi kunni bekor o'tkazmang,
zero u qaytib kelmaydi.*

Umar Xayyom.

*Rejangiz bir yillik bo'lsa, sholi eking. Rejangiz o'n yillik bo'lsa,
daraxt eking. Rejangiz bir umrlik bo'lsa, farzandlaringizni
o'qiting.*

Konfutsiy.

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

Mahalliy aholi orasidan zavodimizga metallurg kadrlar tayyorlash maqsadida 1947-yil bir guruh yoshlar Magnitagorsk sanoat texnikumiga o'qishga yuboriladi.

Savol: Ularni taniqli bir inson oq yo'l tilab, kuzatib qo'yadi. U kim?

Leningrad politexnika institutini bitirib, muhandis-metallurg ixtisosligiga ega bo'lgan birinchi o'zbek yigiti butun umr kombinatimizda mehnat qilgan.

Savol: Uning kimligini bilasizmi?

40 ta ot bir ko'ldan suv ichadi. Ichadi-yu ammo hech qachon to'ymaydi.

Savol: Topishmoqda keltirilgan 40 ta ot va ular ichadigan ko'l nima?

Qaysi hayvon (hashorat)ning zahari boshqalarnikidan kuchliroq bo'ladi?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari

* O'zbekiston metallurgiya zavodi sobiq ittifoq korxonalari orasida birinchilardan bo'lib 1962-yili Marten sexida uzluksiz po'lat quyish qurilmasini qo'llagan.

* 1980-yilga kelib XIMICH korxonasining yillik mahsulot ishlab chiqarish quvvati 25 ming tonnaga yetgan.

* Elektrda po'lat eritish sexida loyiha quvvatlariga erishilgach zavodda po'lat eritish imkoniyati besh baravarga oshgan.



MUASSIS:
**O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.**

www.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O'zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta oyda ikki marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro'yxatga olingan.